

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11501150>

INKLYUZIV TA'LIMNI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Jurayev O'tkirbek Murodillo o'g'li

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti assistent o'qituvchisi

Suvonov Behruz Iskandar o'g'li

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti assistent o'qituvchisi

Xayriddinov Shavkat Batirovich

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti assistent o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim haqida, inklyuziv ta'limga O'zbekistonda va dunyoda e'tibor qay darajada bo'layotganligi haqida bayon etilgan. Inklyuziv ta'lim nima va bunday ta'lim doirasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda, yana qanday ishlarni amalga oshirish to'g'risida fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, maxsus ta'lim, imkoniyati cheklangan bolalar, nogiron bolalar, intellektual xususiyat, jismoniy xususiyat, UNICEF, aqliy xususiyat.

АННОТАЦИЯ

В данной статье описано инклюзивное образование, сколько внимания уделяется инклюзивному образованию в Узбекистане и мире. Что такое инклюзивное образование и какие работы проводятся в рамках такого образования и какие еще работы необходимо провести.

Ключевые слова: инклюзивное образование, специальное образование, дети с ограниченными возможностями, дети с ограниченными возможностями, интеллектуальная собственность, физическая собственность, ЮНИСЕФ, психическая собственность.

ANNOTATION

This article describes inclusive education, how much attention is paid to inclusive education in Uzbekistan and the world. What is inclusive education and what is being done in the framework of such education, and what other things should be done.

Keywords: inclusive education, special education, children with disabilities, children with disabilities, intellectual property, physical property, UNICEF, mental property.

Inklyuziv ta'lim — nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar, (ba'zi sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan) o'smirlar rivojlanishda uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga qaratilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir.

“Inklyuziv ta'lim” atamasi fransuzcha “inclusive” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, “o'z ichiga oladi” deb tarjima qilinadi va maxsus ehtiyojlari bo'lgan va shartli ravishda sog'lom, ya'ni sog'ligi cheklanmagan odamlarning birgalikdagi ta'limini anglatadi. Inklyuziv ta'limning mazmun mohiyati to'g'risidagi bilim va ma'lumotlar hali jamiyatda yetarli emas. Nogiron bolani oddiy sharoitga joylashtirish integratsiyaga qarab qo'yilgan birinchi qadamdir. Integratsiyalashgan ta'lim bu-diqqat markazida bolaning aynan maktabga kelib ketish muammosi turgan, maxsus ehtiyojli bolaning maktabga qatnash jarayonidir.

Inklyuziv ta'lim alohida yordamga muhtoj bolalarni normal rivojlanishdagi bolalar bilan teng huquqlilik asosida ta'lim tarbiya olishlarini ta'minlaydi. Inklyuziv ta'lim olish jarayoni bir-biriga o'xshamaydigan, intellektual, jismoniy va aqliy xususiyatlarga ega bo'lgan odamlar maxsus bilimga muhtoj bo'lmagan tengdoshlari bilan birgalikda zarur bilim va ko'nikmalarni oladigan tarzda tashkil etiladi. “Inklyuziv” va “integratsiyalashgan” atamaları ko'pincha bir xil ma'noda ishlatiladi.

Dunyo bo'ylab nogironligi mavjud bolalarni ta'lim olishini qo'llab quvvatlovchi bolalar tashkiloti UNICEF inklyuziv ta'lim modulini ham e'tibordan chetda qoldirmadi. UNICEF inklyuziv ta'limni O'zbekiston ta'lim tizimiga kiritish masalalari bilan shug'ullanadi. Inklyuziv ta'lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etish, shunigdek, inklyuzivlik tamoyili - imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta'lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan maktabda ta'lim olishi, o'zlashtirishda qiynalayotgan bo'lsa, o'qish va yozishga o'rganish uchun maxsus yordam olishi darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi [1].

Ta'lim sohasida olib borilayotgan katta islohotlarning amaliy qadamlaridan yana biri Prezidentimiz tomonidan Maktabgacha ta'lim vazirligining tashkil etilganligidir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yildagi yangi ta'lim vazirligining asosiy vazifalari orasida O'zbekistonda o'zaro raqobatlashuvchi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilot (MTT)lari tarmog'ini yaratish hisobiga bolalarning maktabgacha ta'lim bilan to'liq qamrab olinishini bosqichma-bosqich ta'minlash hamda bolalarni tarbiyalashning muqobil shakllarini amaliyotga tatbiq

qilishga e'tibor qaratildi. Shu bilan bir qatorda, maktabgacha yoshdagi AEBlarning ta'lim-tarbiya olish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiluvchi quyidagi qator me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi va amalga oshirildi:

2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori;

2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori;

2019-yil 13-maydagi MTT faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi nizomga muvofiq.

Qo'shma turdagi MTTlarida uch yoshdan katta bolalarga mo'ljallangan inklyuziv guruhlar tashkil qilindi va ularga rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalarning toifasiga qarab kiritilishi tasdiqlandi.

Inklyuziv ta'lim tizimida quyidagi maqsad va vazifalarning hal etilishi talab etiladi:

- ta'lim muassasasida imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning ta'lim olishlari uchun zaruriy psixologik-pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yo'naltirilgan umumta'lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish;

- o'quvchilarning ta'limdagi tenglik huquqini kafolatlash;

- jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog'lom bolalarning extiyojlarini qondirish, ijtimoiy xayotga erta moslashtirish;

- imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarni oilalardan ajramagan holda yashash huquqini ro'yobga chiqarish;

- jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va usmirlarga nisbatan do'stona va mexr-muxabbatli munosabatni shakllantirishdir [2].

Inklyuziv ta'limni amaliyotga joriy etish ustida olib borilgan tajribalardan shu narsa o'z isbotini topdiki, har qanday imkoniyati cheklangan bolalarni nuqsonini ilk yoshdan o'z vaqtida aniqlab mutaxassislariga murojaat qilinsa va maktabga tayyorgarlik ishi o'z vaqtida olib borilsa abatta ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Ya'ni inklyuziv ta'limning samarasi yuqori darajada bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, inklyuziv ta'lim to'g'ri tanlovdir, sababi bolalar uyda yoki maxsus muassasalarda ta'lim olgandan ko'ra oddiy maktabda o'z tengdoshlari bilan ta'lim olganda ularning bilim olishga bo'lgan ishtiyoqi oshadi, ta'lim samaradorligi ham yuqori bo'ladi. Uyda ta'lim olgan bolalar jamiyatdan uzulib qoladi, ko'pchilikka qo'shilolmay odamovi bo'lib qolishadi. Maxsus muassasalarda ta'lim olgan bolalarning ko'pchiligi esa bilim darajasi past bo'lib qolishi, yoki o'qishga qiziqishi pasayishi mumkin, sababi u yerda undan ham rivojlanishda orqada qolgan bolalar bo'lishi mumkin, baribir muhit katta ta'sir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Davlatova Aziza Akmalovna. INKLYUZIV TA'LIM BERISHDAGI ASOSIY CHORA-TADBIRLAR VA INKLYUZIV TA'LIM ZARURATI. INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION. SJIF 2023: 5.305. VOLUME 2 ISSUE 11. 233-241.

2. Panjizoda Hurriyatxon Ziyod qizi Zoxiriy. INKLYUZIV TA'LIMDA NOGIRON BOLLALARNI O'QITISH VA TARBIYALASH MUAMMOLARI. Oriental Renaissance: innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 1 | ISSUE 1 ISSN 2181-1784. 234-238.

3. Khayriddinov, S., & Nodirova, F. (2024). ADVANCED PEDAGOGICAL IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION THE SIGNIFICANCE OF EXPERIENCES IN THE EDUCATIONAL SYSTEM. *Talqin Va Tadqiqotlar*, (28).

4. Sunatov, J. R. (2023, December). TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic: "Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions"* (Vol. 1, No. 01).

5. угли Сунатов, Ж. Т., & Юсупов, Ш. (2024). АНАЛИЗ СОВРЕМЕННЫХ ЯЗЫКОВ ПРОГРАММИРОВАНИЯ И ИХ ВОЗМОЖНОСТИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ. *Innovative Development in Educational Activities*, 3(3), 73-79.

6. Sunatov, J. R., Shamatova, G., & Maxmanazarov, O. (2024). TA'LIMDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH (MS POWERPOINT AMALIY DASTURIY TA'MINOT MISOLIDA). *Talqin va tadqiqotlar*, (28).

7. Abduvaliyev, A. A., & Sunatov, J. T. (2024). IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISHDA TREND MEZONIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI. *Экономика и социум*, (2 (117)-1), 69-73.

8. Sunatov, J. R., Rustamov, R., & Dustmurodova, M. (2024). KOMPYUTER LINGVISTIKASIDA FONETIK TAHLIL JARAYONI. *Modern Science and Research*, 3(5), 191-195.

9. Qodirov, F., & Suvonov, B. (2023). Development Of An Automatic Ventilation System For Smart Greenhouses. *Solution of social problems in management and economy*, 2(13), 168-172.

10. Iskandar o'g'li, S. B. (2023). TABIIY GAZNI QAYTA ISHLASH JARAYONINING INTELLEKTUALLASHTIRILGAN BOSHQARUVIDA NOANIQ MANTIQ ASOSIDAGI MODEL DAN FOYDALANGAN HOLDA NAZORAT QILISH.

11. Murodullo o'g'li, J. U. APPLICATION OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN TECHNICAL SYSTEMS IN ENGINEERING FIELDS.